




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

“LUG‘ATI CHIG‘ATOYI VA TURKIY” – O‘ZBEK SHEVALARINI O‘RGANISHDA MUHIM TARIXIY MANBA

“LUGHAT-I CHIGHATAY VA TURKIY” AS A SIGNIFICANT HISTORICAL SOURCE FOR THE RESEARCH OF UZBEK DIALECTS

Nishonboy HUSANOV,

ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648

Annotatsiya. *In the article, dialectal words from Shaykh Sulaymon Bukhari’s work “Lughati Chighatoyi va Turki Usmoniy” are compared with Uzbek dialects. The phonetic and semantic features of the words in the dictionary and in Uzbek dialects – such as expansion and contraction phenomena – have been analyzed. “Lughati Chighatayi va Turki Usmaniy” is considered an important historical source in the study of Uzbek dialects.*

Key words: *Dictionary, word, source, Uzbek dialects, Oghuz dialect, Kipchak dialect, phonetic changes, semantic features, Uzbek literary language.*

Buxoroda tavallud topgan va Turkiyaning Istambul shahrida yashab ijod etgan taniqli tilshunos olim, shebhendr (elchi), sayyoh Shayx Sulaymon Buxoriy (1821- 1890) mojaristonlik turkiyshunoslarning iltimosiga binoan hamda chig‘atoy tilining leksik boyligi va grammatik xususiyatlarini ko‘rsatish maqsadida “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”ni 1882-yilda Istambuldagi “Mehron” matbaasida chop ettiradi (1).

“Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” va o‘zbek shevalaridagi so‘zlarini qiyosiy-tarixiy aspektda o‘rganish so‘zlar semantikasida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy” asari va o‘zbek shevalarini qiyosiy o‘rganish, tadqiq etish tilshunoslikdagi ko‘pgina masalalarni oydinlashtiradi.. Caferoğlu ta’kidlaganidek, “Lügati Çağatay ve Türki Osmani” degan nomiga qaramay, material Shayx Sulaymon Afandi mansub bo‘lgan o‘zbek shevasiga oiddir. Manbalar turli chig‘atoy manbalaridan olingan. O‘rta Osiyo darvishlarining jonli shevalaridan olinmalar bor” (2).

Sulaymon Buxoriy ikki jilddan iborat kitob yozgan. Ammo uning birinchi jildi Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy chop etilgan. Ikkinchi jild o‘zbek shevalari va urug‘lari tiliga bag‘ishlangan bo‘lib bu haqda muallif shunday yozadi: “Va ikkinchi Mavorounnahr daftarig‘a Osiyo vasati o‘zbek qaboyillari – barlos, mo‘g‘ul, tator, neko‘z, qongli, qatag‘on, chimboy, chuput, manjal, ayoqli, to‘poqli, yuz, ming, uyg‘ur, qishliq, xitoy, qipchoq, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, saroy, matin, sulduz, qurlos, qo‘ng‘irot, kazaki, mang‘it, arlos, taroqli, aboqli, achamayli, arab, irg‘iz, do‘rmon, naymon, qayrasoldi, o‘n, chaloyir, arg‘in, alchin, urmoq, to‘doq, kajik, qalmoq, qorluq, kelji, buyrok, adirot, qiyot, fangli, uzurlot, chuploji. qushchi, utoji, uymodid, arg‘it, misid, markit, burqut, uklon, uyshun, totor, yobu, tuma (tama), badin, ralot, va ket, qalon, va chuploji, qori, va baylo, va yobu, fulodji, g‘ajir, badi, os, jivirg‘on, va kelji, ela-ela, bayot, buyodat, turkman, kudoy, taki, ar, jurot, o‘g‘lon, nuboy ali hazo al qiyos 92 urug‘ va tiyra o‘zbeklar ichida suylanilmakda o‘lg‘on chig‘atoy zurub amsollari va xuruf hijo tartibila sabt ayladim” (1,8).

Sulaymon Buxoriy lug‘atda chig‘atoycha so‘zni izohlayotganda uning ma’nosini tushuntirish bilan chegaralanib qolmagan, balki ensiklopedik ma’lumotni bergan hamda turli joylarda qanday qo‘llanilishini ham ko‘rsatgan.

QAROKO‘L قراکول – Turkistanda Buxara jihatinde bir memlekatdir; Buxarai yetti tuman, Qarakul yetti yarim tuman derlar; siyah qo‘zi terisi, ajam kulah beg‘nasi uradendir (1,216)

O'rchin اورچين — sinjaq; Hindistanda perkane; Xurasan ve Buxarada tuman; fars ichinda paya vezina ve nardban; urdu ve ximagah selatina atlaq o'lnur (1,29)

Tanga تنكه – Buxara ve Asiya Vesati sikkasi maskukat nuqre; kumush; siym.

So'fiy Alloyor: Qolibmen tanga deb ahvoli tangga,

Mashaqqatlar boshimg'a rangga-rangga (1,111).

Sulaymon Buxoriy "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy"da o'zbek xalq shevalaridan ham muhim manba sifatida foydalangan. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, lug'atda berilgan dialektal so'zlarning ma'lum qismi ug'uz shevalariga mansubdir. Sulaymon Buxoriy Qorakullik bo'lgani uchun bu joyga oid so'zlardan keng foydalangan. Lugatda va Qorakul shevasida ma'no va shakl jihatdan aynan bir xil so'zlar mavjud.

O'KUZ اوکوز – gav; savr; pend; nasihat; sali turkang ikinchisi, ya'ni udi ili.(1, 370)

Bu so'z Qorakulda "ho'kiz"ni anglatadi va shevada o'zgarishsiz qo'llaniladi: *Dejzan öyliniñ töjina bir öküzi qöšant ädip gäliñlär* (3, 36).

YIG ييك – zabun; bed; fena; naxush; gande sho'ridi; bed muamile (1, 313).

Yig//ig so'zi Qorako'l tumanida "kasallik" ma'nosida qo'llaniladi.

AShATMAQ اشاتماق – yedirmek; it'am etmek; o'qlamaq.

OShOMAQ آشاماق – ayzan(1, 13).

Turkiycha *ašat*- "taom yedirmoq" o'g'uz shevasida ham shu mazmunda -*äšädi* qo'llanadi (3, 28).

SUSOQ سوساق – teshna; atashan; cho'much; suzuji alet; sus turan adam; mutehhayir; ab gardan; chay gerdan; buyuk cho'b qashuq.(1,190)

Bu so'z o'g'uz shevalarida *susoq* tarzida istifoda etiladi: *Bār, susāyī olägäl, u:qādiñ düzi göräjin* (3, 183). Qorako'l folklorida burunni cho'michga o'xshatiladi: *Burunlari susoqday, tishi xuddi o'roqday, momosiga bir salom* (4, 113).

Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy"idagi so'zlar o'g'uz shevasidagiga qaraganda kengroq ma'noda qo'llanilgan.

SURUK سۈرۈك – rame; suri; xar gala; rayi eg'nam.

Misol: Olig'a yetishti bir suruk qo'y,

Cho'poni ko'rundi oshnaro'y (1, 190).

O'g'uz dialektlarida suruk "to'da, gala" hamda "qo'ylar suruvi"ni ifodalashga xizmat qiladi:

Yov kelsa yurtingga suruk-suruk,

Qurol ol qo'lga, gar bo'lsang tirik.

Bil, mardlar safida bo'lsa o'rning,

Qo'rqoq erur yog'iyga do'st, sherik(4, 113)

QARINDOSH قارينداش – birader; qardash; axi; aka-uka.

Misol: Bir kecha mehman o'l jonim qarindosh,

Ikkimiz qo'nushub qardosh bo'loli (1, 219)

Qarindaš so'zi o'g'uz shevasida esa hozirgibo'zbek adabiy tilidagi singari, "bir avlod-ajdodga mansub bo'lgan kishilar, ota-ona tomonidan bo'lgan shaxslar (biri boshqasiga nisbatan)"ni anglatadi"(3, 70).

ChO'LOQ چولاق – tupal; ejnab; araj; shal; leng; aqsaq.

Misol: Garchi ul zohirda bir cho'loqdur,

Hiylayu nayrangda lekin toqdur (1, 158).

O'g'uz shevasida ushbu so'zning ma'nosi kengayib, "qo'li kesilgan, cho'loq"dan tashqari, "bir oyog'i yo'q yoki oyog'i yarmigacha kesilgan" kabi ma'nolarni ham anglatadi(3, 71).

YEM ييم – yem; yemek; at yemi, xo'raki hayvan (1,302).

Bu so'z hozirgi o'g'uz shevasida hayvonlarning ozuqasi sifatida ifodalanadi: *Bārip tutāštīriq ālāgāl, öžā:γ ālāv jāqīp, māllariñ jemini biširžāq* (3, 216.)

YILQI يىلقى – yilqi; xarkale; tavar, esb, at.

Misoli Amlah: Yilqilar ichinda yaxshi bir ot,

Dulduldan olib magarki zurriyot (1, 314).

O'g'uz shevalarida yilqi "ot"ni ifodalaydi va so'zning qo'llanish doirasi, ma'nosi toraygan.

BOQIR باقىر - baqir; nahas; mesh; jangar,1) (71

Buxoro o'g'uz shevasida **paqir** tarzida, adabiy tilda chelak tarzida ishlatiladi. mis yoki boshqa narsadan qilingan buyumni anglatadi

FUTA فوته – qo'shaq; kemerbend; belbog'; xidma balina tutan ipek pushtimal; qavrin.

Misol: Yorimsan borimsan,

Ne tarafa nigorimsan.

Qirmizi futani ushlab.

Oydin kecha kelgaysan.(1, 212)

Qorako'l shevasida **föta** "ip, belbog', kamarband" ma'nolarini bildiradi va fo'ta tutish odati – kelin kelayotgan ulov oldiga ip tutiladi, kuyov tomon biror narsa bergach, ip tushirishadi: *Mahkam tuting kuyovning oppoq fo'tasini, Tekinga o'tkazmang kelinning to'tasini.* (4,136)

Kirpech كرىچ – xisht(1,254) so'zi o'g'uz shevalarida **kärvič//girpič//gürvič** kabi shakllari uchraydi.

Umuman,Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy"dagi arna (1,100), emgak (1,21); jigi-jigi (1,143); chanoq 1,(149); kadxudo (1,252); lar ug'uz shevasiga(5) tegishli bo'lsa, checha (1,160); qalpog' (1,221); bug'joma (1,82); kumoj (1,261); bulamoq (1,84); tishxoli (1,134) kabi so'zlar qipchoq dialektiga(6) tegishlidir. Bu so'zlarning asosiy qismi Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida faol ishlatiladi.

"Lug'ati chigatoyi va turki usmoniy"dagi dialektal so'zlarni hozirgi o'zbek tiliga qiyosan 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Hozirgi o'zbek tilida o'zgarishsiz ishlatilayotgan dialektal so'zlar.
2. Semantik o'zgarishga uchragan dialektal so'zlar.
3. Fonetik o'zgarishga uchragan dialektal so'zlar.,

Sulaymon Buxoriyning lug'atida qayd etilgan dialektal so'zlarning asosiy qismi hozirgi o'zbek shevalarida deyarli o'zgarishsiz ishlatiladi.

So'z	"Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy"da	O'zbek xalq shevalari lug'atida
Arna	Arno ارنو – derya; naxrdan ayrulan bir qo'l suv. (10)	21: katta ariq, kanal (Xorazm)
Arig'	Arig' va ariq اريغ و اريق – saf; pakize;(10)	20: toza,pok (Urgench, Xiva)
Alqamoq	Alqamaq القاماق — xayr-dua etmek;(20)	18: duo qilmoq (Qashqadaryo)
Emgak	Amgak امكاك — emak, say; zehmat (21)	29: mehnat, zaxmat (Xonqa)
Inak	Enak- ايناك- ايناك made; gav. (63)	115: sigir (Qashqadaryo, Buxoro, Smarqand)
Bot	Bot بات — -chabuq; tez; ajala. (66)	49: tez (Toshkent, Forish)
Bo'rk	Burk بورك – kulah; tupi; qalpaq; (79)	56: qalpoq (Forish)

Burut	Burut – بوروت mo‘ylab;(79)	56: mo‘ylov (Buxoro, Xorazm)
Bulamoq	bo‘lamoq – bir بولاماق nev taam (84)	KDL, 86: taom
Jinli	Jinli – جينلى divane; tintek; mejnun; jinni.(144)	103: tentak, jinni (Xorazm)
Choshlamoq	Choshlamoq – چاشلاماق yig‘maq (146)	299: uymoq, to‘plamoq (Qashqadaryo)
Rajja	raja – رجه mesaha; endaze; (175)	214: reja ip (Buxoro), plan (Qashqadaryo)
Zocha	Zocha – زچه pupe;o‘yinjac (176)	111: qo‘g‘irchoq (Buxoro)
Risha	G‘isha – غيش suv yitaqlaride bo‘linan qamishliq; (209)	74: qamish (Urganch, Xiva)
Qovurmoch	Qovurmoj – قاورماچ qavurilmish bug‘day; qavurme (224)	KDL, 85: bug‘doyni qovirib tayyorlanadigan ovqat (8)
Korson	Karsan – كرسن ag‘ajden memul buyuk tabaq;(253)	142: og‘och tovoq (Xorazm), xamir qoradigan (Qashqadaryo)
Keli	Kel – كىلى so‘qi; o‘g‘ur. (267)	144: ug‘ir (Farg‘ona)
Lachak	Lachak – لچك herir mandil; bash o‘retisi; ishmaq (274)	172: doka ro‘mol (Xorazm)
Mong	Mong – مانك -uch senelik qo‘zi (276)	179: uch yashar qo‘y (Qipchoq)
Ninak	Ninak – نيناك mardmek; ko‘z bebegi; (285)	196: ko‘z qorachig‘i (Samarqand, Buxoro)

2. Lug‘atdagi so‘zlarning ba‘zilari hozirgi o‘zbek shevalarida bir oz o‘zgargan ma’noda ishlatiladi. Masalan, **abo** // aba – ابا*ابه – jedd; baba; buyuk amuja (2)-so‘zi ba‘zi shevalarda (Uychi, Namangan, Chortoq, Olabuqa, Oqtosh.)ona va opa ma’nosida ishlatiladi: atoliq//atolig – اتاليق*اتالغ – babaliq; abut; murabbiy; peder maqaminda tutdig‘i ve pederi kebi e’timad etdigi adam (4) so‘zi o‘g‘uz dialektida otaliq. Baxshi – بخشى - sazende; mug‘anni; ashig; mutrib; qo‘shuqchi (74) so‘z ba‘zi shevalarda (Samarqand, Andijon) ko‘chiriqchi-tabib ma’nosida: bakovul- بكاول — dastur salar; chashengir; vekil xarj; devan begi (75) so‘zi Buxoro shevasida “pazanda” ma’nosida qo‘llanadi.

So‘z	“Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”da	O‘zbek xalq shevalari lug‘atida
Abushqa	abushqa – ابوشقه zavj, shevher (3)	329: chol (uzgan)
Aran	aran – اران ag‘il; axur; qush ve shikar hayvanlaring reh guzarlarinda qo‘nilan ve chaqilan six ve qaziqlar.(7);	20: molxona, otxona

<i>Checha</i>	checha چچه – amma; xala; kuchuk hemshire; dizza; echa(160)	<i>QDL,84:asosan yanga ma'nosida</i>
<i>Dol</i>	dol دال – arqa; sirt; giru; umuz; shax; el ve qo'l 169	<i>84 kaft,yelka(Andijon)</i>
<i>Atlamog</i>	atlamog اتلاماق – sachramaq; ubur etmek; izidan bir-bira qaliqmaq; tasmiya etmek; (3)	<i>84:sakramog (Xorazm)</i>

3."Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy"dagi so'zlarning ma'lum bir qismi hozirgi o'zbek shevalarida fonetik o'zgarishga uchragan holda qo'llaniladi.

1.u---i :bergu بېرگو – vergu; salg'it; alish; mal mayring istiqva ve istihsal; zakut; xiraj; vaj(91)—bergi(Shimoliy Xorazm); zangu زنگو – nereban; zina; salim; mas'ad; paya; bo'sag'a(176)---zangi(Xorazm); yobu يابو – bekr; yuk ati; piltre munasib tix ve dix at, qutlu hayvan(289)—yabi(Ug'uz)

2.k----g: erkina ايركينه - alachuqing kabtaqa bash tarafinda o'lan cho'p(49)-erganak(qipchoq); chakka چکه – peshanang ikki tarafi; shaqqa; pek kuchuq; bir sheyi; chekida ve suzama yug'urta ve qatiqa daxi derlar(152)-chaga(Shimoliy Xorazm)

3. k----g': bitmak بيتماک – yazmaq; bitmak; tahrir ve tarqim etmek; nabit ve peyda o'lmaq; iltiam bo'lmaq; meydana kelmek; namu etmek; anjam ve itmam; zahir ve nemayan; tuganmek(89);-bitmog'(Janubiy Tojikiston):

4.g'----q;m----n: bog'om باغام – takiya ag'aji; derek; dastek; tamma; matanet; temel(70)-baqan(Gurlan, Qirq)

Lug'atdagi -g,-n , -a tovushlar bilan tugayotgan ba'zi so'zlar shimoliy lahjalarda bu harflarsiz ishlatiladi, ya'ni tovushlar tushib qoladi: arun ارون – ayu; saf; pakize(10); aru(Gurlan, Yangibozor); adog'lig' اچاغليغ – namzad o'lunmish qiz; nishanli-adog'li; manzur; mav'ud; atag'lig'(7) - adog'li(Xorazm); kukona كوكانه – zenjir; qayd; bend; g'ul(269) - kugan(Jush, Nayman).

Lug'atdagi ba'zi so'zlar hozirgi shevalarimizda turli shakllarda uchraydi: tovushqon tavushqon – تالوشقان – tavshan; xargush; arneb (105) - tovushxon (Qarnab) , tovushqan (Beshkent) , tavushqon (Buxora), tavshan (Xiva).

Umuman, lug'atdagi dialektal so'zlar Sulaymon Buxoriyning o'zbek xalq shevalarini yaxshi va chuqur bilganini ko'rsatadi. "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" dialektal so'zlarni aniqlashda, o'zbek shevalardagi so'zlarning ma'no xususiyatlari - kengayish, torayish va yangi ma'no kasb etish hodisalarini asoslashda, shevalardagi so'zlarning tarixiy-etimologik jihatlarini ochib berishda muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1298 شېخ سلیمان افندی بخاری لغت چغتای و ترکی عثمانی جلد اول استانبول مهران مطبعه سی
2. Caferoğlu, A. Türk Dili Tarihi I-II, 3. Baskı, İstanbul, 1984). Enderun Kitabevi.
3. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2018. .
4. Ғайбуллаев С. Қорақўл шевасининг таровати. – Тошкент, 2017.
5. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент, 1971.
6. Дониёров Х.Қипчок диалектларининг лексикаси. – Тошкент, 1979.